

**DUTOR IJROCHILIGINING TARIXIY RIVOJLANISHI VA
AMALIYOTDA TADBIQLI.**

Maxamatova Marjona Azamatjonovna

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

"Vokal va cholg'u ijrochiligi" kafedrası

Cholg'u ijrochiligi yo'nalishining

24.41-guruh 2-bosqich talabasi

marjonmaxamatova@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada nafaqat dutor milliy cholg'usi haqida tarixiy manbalar balki, ushbu cholg'uni yaratuvchi qo'li gul ustalar va ushbu cholg'uni maromida ijro etuvchi ijrochilar haqida ham ta'kidlab o'tilgan. Ushbu maqolada, tarixda hamda hozirga vaqtga kelib milliy cholg'ularimizning rivojlanishi juda katta ahamiyatga ega ekanligi ham albatta aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: dutor, ansambl, cholg'ular tarixi, diapozon, musiqiy ilm va bilim ko'nikmalari

Аннотация: В этой статье не только рассматриваются исторические источники о национальном инструменте дутор, но и освещаются мастера, создавшие этот инструмент, и исполнители, играющие на нем. В статье также подчеркивается огромное значение развития наших национальных инструментов в истории и по сей день.

Ключевые слова: дутар, ансамбль, история инструментов, диапазон, музыковедение и когнитивные навыки

Har bir xalq o'z millati, davlat ramzlari va tarixiy boyliklariga ega bo'lganidek, milliy musiqa madaniyati, milliy cholg'ulari, bir-biridan buyuk mukammal cholg'u ijrochilariga va milliy cholg'ularining tarixiy ildiziga egadir. Bizgacha yetib kelgan musiqiy an'analar avlodlar zanjirining mustahkamligidan dalolatdir. Bu borada xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan maqomlar, maqom yo'llariga mansub mumtoz musiqa asarlari hozirgacha o'zining badiiy va estetik imkoniyatlarini yuqori darajada saqlab kelayotganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ularni o'rganish, tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish zamonamizning talab va ehtiyojida bo'lgan dolzarb masalalardan biridir. Ma'lumki, o'zbek xalqining musiqiy madaniyati milliy cholg'ulariga boy bo'lib, tanbur, dutor, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, chang, qonun, ud, rubob, doira va nog'ora kabi cholg'ular o'zining mukammalligi bilan mohir ijrochilar amaliyotida munosib o'rin topgan. Chunki har bir cholg'u o'zining shakllanish tarixi, ijro imkoniyatlari, betakror, jozibali sadolanishi va muhlislariga ega. Ularning barcha sir-sinoatlarini ilmiy-nazariy tadqiq etish va yosh avlodga yetkazish har bir murabbiyning muqaddas burchidir. Musiqa sohasi bo'yicha yoshlarning saboq olish jarayoni doimo 3 mezon asosida jonlanadi:

❖ **Birinchidan** — ustoz-shogird qabilida;

- ❖ **Ikkinchidan** — ommaviy, ya'ni jo'rnavoqlik, ansambl bo'lib ijro etishda;
- ❖ **Uchinchidan** — mustaqil yoki yakka holda.

O'zbek milliy cholg'ulari juda qadimiy bo'lib, eng dastlabki musiqa asboblari eramizdan avvalgi 13-ming yilliklarda paydo bo'lganligi taxmin qilinadi, dastlab zarbli (urma) cholg'ular tarqalgan, keyinroq torli, puflama asboblari rivojlangan va XX asrda yanada takomillashgan.

- ❖ **Eng qadimiy davr:** Eramizdan avvalgi 13-ming yilliklar (qadimgi odamlar tomonidan yaratilgan).

- ❖ **Dastlabki asboblari:** Urma-zarbli cholg'ulardan doira ilk musiqa asbobidir.

- ❖ **Rivojlanish:** Keyinchalik nay, g'ijjak kabi torli va puflama, chertma, mizrobli cholg'ular paydo bo'lgan va rivojlangan.

- ❖ **Takomillashuv:** XX asrning 20-30-yillarida milliy cholg'ular yanada takomillashgan.¹

O'zbek musiqiy cholg'ular olami bu xususda ma'nan va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang-barang ekanligini e'tirof etib o'tish lozimdir. Qolaversa, qaysiki xalqning ma'naviyati yuksak bo'lsa, uning tarixi va unga mos merosi ham ulkandir. Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ulari rang-barang tarzda, o'ziga xos shakllangan va musiqaning barcha tarmoqlariga mos cholg'u asboblari shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan.

O'tmish allomalari al-Forobiy (IX asr) o'zining "Katta musiqa kitobi"da, Safiuddin Urmaviy (XII asr) musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iy (XIV asr) "Jami al-alhon fi ilm al-musiqiy" risolasida, Ahmadiy (XIV asr) "Sozlar munozarasi" asarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV asr) "Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy" risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV asr) "Musiqiy risola"sida, Amuliy (XVI asr) "Musiqiy risola"sida, Darvesh Ali Changiy (XVII asr) "Musiqiy risola"larida musiqiy cholg'ularni o'rganib, tadqiq etish masalalarining turli tomonlariga to'xtalib, o'z davrlarining musiqiy cholg'ulari tasnifatini bayon etganlar. O'tmishning zabardast shoirlari o'z asarlarida musiqiy cholg'ular nomlarini zikr etishda sozlarga takror va takror murojaat etganlar. Ayniqsa, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy musiqa ilmining eng nafosatli va mumtoz kerakli tarmoqlariga urg'u berib o'tganliklarini asarlaridan bilib olish mumkin. XX asrga kelib Eyxgorn, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayev kabi olimlar musiqiy cholg'ularni o'rganish xususida samarali ish olib borganlar. Tarixiy qo'lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalarda O'rta Osiyo xalqlari amaliyotida vujudga kelgan barcha cholg'u asboblarning nomlari o'z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg'ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbatlari, tayyorlash mezonlari, cholg'ular uchun ishlatiladigan) ma'lumotlar keltirilgan. Al-Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Amuliy, Darvish Ali Changiy, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayevlar o'z risolalarida cholg'u sozlariga katta e'tibor bilan yondoshib, ularni amaliyotdagi

¹ Tashmatova A. "Ijrochilik san'ati tarixi".

tutgan o'zni, ayrim falsafiy xususiyatlari hamda ma'lum darajada tasnifoti bilan yoritganlar.

1. Torli cholg'ulardan.	Borbad, ud, rud, qo'biz, g'ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor;
2. Damli sozlardan.	Ruhafzo, shammoma, org'anun, sibizg'i, nayi anbon, chag'ona, karnay;
3. Urma cholg'ulardan.	Daf, doyra, nog'ora, safoil kabilar haqida turli darajadagi ma'lumotlar keltirilgan.

Musiqiy cholg'ular ijrochilik amaliyotining turli yo'nalishlarida qo'llanilib kelingan.² Avvalo eng sodda cholg'ular yaratilib, kundalik hayot tarzida keng foydalanilganligini qayd etish joizdir. Bunday cholg'ular har bir xalqning cholg'ular dunyosida mavjud, ayni paytda ham iste'molda bo'lib keladi. O'zbek xalq ijrochilik amaliyotida saqlanib, qo'llanib kelinayotgan cholg'ulardan chang, qo'biz, sibizg'i shular jumlasidandir. Bu cholg'ularni tayyorlash va ijro etish ham oddiyligi bilan ajralib turadi.

Davrlar o'tishi, jamiyat taraqqiyoti mezoniga cholg'u sozlar ham hamnafas tarzda rivojlanib, zamonaga mos takomillashib, mukammallashib borgan. Tarixiy manbalarda, Qulmuhammad Udiyning ud cholg'usiga to'rtinchi sim taqqanligi yoki g'ijjak cholg'usining avval ikki torli, keyin uchinchi va to'rtinchi torlari taqilganligi kabi ma'lumotlar aynan cholg'ular takomillashishi bilan bog'liqdir. Takomillashish jarayonida cholg'ularning shakl va tarannum (ovoz) mezonlarini boyitish katta ahamiyat kasb etgan. Bu ikki mezon cholg'ularning ma'nan va moddiy qiymatini ham belgilashga asos bo'lib xizmat qilgan. Zero, chiroyli cholg'u go'zal ovozga ega ekan, u xalq ma'naviy boyligi hamda mulki ekanligini e'tirof etish lozimdir.

XIX asr oxiri va XX asrning o'zida o'zbekona chang, qashqar ruboblari shakllanib iste'molga kirdi. Ud va qonun sozlari qayta tiklanib, ijrochilik amaliyotini sezilarli darajada boyitdi. Afg'on rubobi hamda kurd sozlari ham o'ziga xos jozibasi bilan amaliy jarayondan munosib o'rin oldi. Zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti bilan bog'liq holda bir qator chang, rubob, dutor, g'ijjak kabi xalq cholg'ularining oilaviy namunalari yaratildi. Pirovardida, zamonaviy jarayonga kelib musiqiy cholg'ularning turli yo'nalishlarga mos, xilma-xil tarkiblari yuzaga keldi. Amaliyotda an'anaviy, qayta ishlangan, takomillashgan, qayta tiklangan, yangi zamonaviy (hamda elektron) xillari keng qo'llanilmoqda. Aytib o'tish joizki, cholg'ular, cholg'u musiqasi hamda ijrochiligi azal-azaldan bir-birini to'ldirib, rivojlanishiga va takomillashishiga zamin yaratib kelgan. Ijrochilik mezonining rivoji cholg'ular ko'lamini kengaytirish, imkoniyatlarini oshirish uchun xizmat qilgan. O'zbek an'anaviy cholg'ularining tarixiy shakllanishi ham bir qator xalq milliy an'analari negizida qaror topgan. kasbiy musiqaning ijodiyoti va uning rivoji aynan cholg'ular bilan chambarchas bog'liqligini qayd etib o'tish lozimdir. Chunonchi, mumtoz ijodiyot

² Fitrat A. «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi», M. 1926-yil.

cholg'ularning mukammallik xususiyatlarini namoyish etibgina qolmay, ularning rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Shu bois, cholg'ular va cholg'u musiqasi an'analari o'zining shakllanish davri, ya'ni qadim zamonlardan xalq musiqa madaniyatining asosiy omillaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Cholg'ushunoslik ilmi fanda «**organologiya**» deb yuritiladi va cholg'u sozlarning shakllanishi, amaliyotda qo'llanilishi hamda rivojlanish mezonlarini ilmiy asoslab beradi. Ushbu fanning rivojida bir qator Sharq va G'arb olimlari qatorida o'zbek musiqashunos olimlari ham munosib tadqiqotlar olib borganlar. Qadimiy cholg'ular ko'proq tarixiy obidalar orqali kashf etilib, keyinchalik tarix, adabiyot va musiqiy risolalarda bayon etilgan. Cholg'ularning ilk tasvirlari qadimgi odamlarning istiqomat joylari - g'orlarda, qoya toshlarda o'yib chizilgan, imoratlarning peshtoqlari, saroylarning devoriy suratlari, sopol idishlarga chizilgan suratlarda va terrakota haykalchalarida aksini topgan.

O'rta Osiyo madaniyatiga qiziqish G'arb mamlakatlarida ortib boradi va uni o'rganish maqsadida mutaxassislar kela boshlaydilar. Marko Polo, Vamberi, Ankomin, Leysek, Eyxgorn kabi sayohatchi etnograflar, tarixchilar, kopelmeysterlarning kundaliklarida zikr etilgan ma'lumotlar keyinchalik yirik-yirik maqolalar va kitob tarzida nashr yuzini ko'radi. Eyxgornning o'zi butun O'rta Osiyoni aylanib chiqib, olamshumul muvaffaqiyatga erishadi. Ilk bor cholg'ular kolleksiyasini yig'adi va bir qator shaharlarda namoyish etadi.

Dutor – ushbu dutor atamasining ma'nosi fors tilidan olingan bo'lib, “du” – ikki, “tor” esa birlashib ikki tor ya'ni ikki torli cholg'u degan ma'noni anglatadi. Dutor cholg'usining kelib chiqish tarixi qadimiy bo'lib, O'rta Osiyo musiqa madaniyatida chuqur ildiz qoldirgan. XX asrda uning zamonaviy shakllari (dutor prima, dutor-alt, dutor-bas, dutor kontrabas, tenor dutor) yaratilgan, professional ijrochilik maktablari (Andijon, Toshkent, Xorazm) rivojlangan va hozirda dutor xalq cholg'ulari orkestrlarida, an'anaviy ijrochilikda hamda zamonaviy musiqa asarlarida keng qo'llanilmoqda, innovatsiyalar davom etmoqda.

Dutor XV asr atroflarida paydo bo'lgan deya tahminlar mavjud. O'zbek, tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan.³ O'zbek dutori muloyim, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. Dutorning dutor alt turi ham mavjud, dutor kontrabas, dutor bas kabi zamonaviy turlari ham mavjud. Dutor yakkanavoz va jo'navoz cholg'u sozi bo'lib, sozandadan katta ijro mahoratini talab etadi. Dutorda yakka zarb, terma zarb, qo'shzarb, bilak zarb, bidratma, teskari zarb kabi ijro usullari mavjud. Dutor haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlarni Navoiyning zamondoshi **Zaynulobidin al-Husayniy**, Musiqaning ilmiy va amaliy qoidalari nomli risolasi (XVI bobi)da uchratamiz. XVI–XVII asrlarda “Dutoriy” taxallusi bilan ijod etgan (hirotlik **Yusuf Mavdudiy Dutoriy**, mashhadlik **Mirquliy Dutoriy** kabi) sozandalarning nomlari manbalarda saqlangan. Hozirda milliy dutor ijrochiligining

³ .M.Safarova. “Dutor mutaxassisligi” bo'yicha O'quv qo'llanma.

o'ziga xos uslublari 4 ta asosiy (Andijon, Toshkent, Samarqand va Xorazm) dutorchilik maktablari orqali namoyon bo'ladi.

Dutor cholg'usining oilasi esa 1930-1936 yili rus kompozitori **A.S.Petrosyans** tomonidan mukammal qayta ishlanib shakllangan. Dutor cholg'usining oilasi 5 ta cholg'ulardan iborat va yaba 1 ta dutor tenor cholg'usi ham 6-cholg'u deb atalgan chunki, ushbu cholg'uning diapazoni biroz keng imkoniyatlarga ega milliy kuy, qo'shiqlarimizni mukammal ijro etishga qulaydir, shuning sababli bu cholg'uni ham keng targ'ib etishgan. Ushbu cholg'ularning nomlanishi esa, quyidagicha:

1. Dutor prima (xalq cholg'ular orkestri va ansambli uchun mukammal);
2. Dutor sekunda (xalq cholg'ular orkestri va ansambli uchun mukammal);
3. Dutor alt (xalq cholg'ular orkestri va ansambli uchun mukammal);
4. Dutor bas (xalq cholg'ular orkestri va ansambli uchun mukammal);
5. Dutor kontrabas (xalq cholg'ular orkestri va ansambli uchun mukammal);
6. TenoDutor tenor dutor (an'anaviy ansambllar uchun mukammal).

- **Qadimiy ildizlar:** Dutor, "ikki torli" degan ma'noni anglatadi, u O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy cholg'usi bo'lib, ko'plab qadimiy manbalarda tilga olingan.

- **An'anaviy shakllari:** Qadimda asosan yog'ochdan yasalgan, pardalari bo'lmagan yoki kam bo'lgan duradgorlik namunalari mavjud bo'lgan.

- **XX asr transformatsiyasi:** 1930-yillarda musiqa cholg'ulari ustasi Usta Usmon Zufarov va Yunus Rajabiy hamkorligida dutorning zamonaviy turi (dutor-alt) yaratildi. Unda polimer torlar (kapron), xromatik pardalar qo'llanildi va dutor oilasi (bas, kontrabas) yaratildi.

- **Ijrochilik maktablari:** Andijon, Toshkent, Samarqand, Xorazm dutorchilik maktablari o'ziga xos uslublarni shakllantirdi. Ushbu maktabning cholg'uchilari mukammal professional bo'lib yetilmoqda. Juda ko'p xalqaro, respublika miqyosidagi festival, tanlovlarda ham eng yuqori darajalarni qo'lga kiritib eng mukammal ijrochi nomiga sazovor bo'lishmoqda.

- **Orkestrda:** dutor prima, dutor sekunda, dutor-alt, dutor-bas, dutor kontrabas kabi yangi turlari O'zbek xalq cholg'ulari orkestrlarida muhim o'rin egallaydigan cholg'ularga aylanish ulgirdi. Bu dutor cholg'usi orkestrlarda juda muhim ahamiyatga egadir, bu cholg'u orqali orkestrda barcha nafaqat o'zbek milliy kut, qo'shiqlar balki Yevropa butumn dunyo qo'shiqlarini ijro etish mumkin. Dutor ijrochilari xalq kuylarini zamonaviy garmonizatsiyalar bilan ijro etishadi, fortepiano va boshqa cholg'ular jo'rligida asarlar yaratishmoqda. Dutor, an'anaviy kuylar bilan bir qatorda, zamonaviy kompozitorlarning asarlarida ham faol qo'llaniladi, bu esa uning dolzarbligini ta'minlaydi.

- **Innovatsiyalar:** Dutorning konstruksiyasini takomillashtirish, yangi tovush imkoniyatlarini ochish bo'yicha izlanishlar davom etmoqda va ushbu dutor cholg'usining keng tarzda transpozitsiya qilinishi ko'zda tutilmoqda.

- **Ta'lim va tarbiya:** Bolalar musiqa maktablaridan tortib, davlat konservatoriyalarigacha dutor chalish o'rgatiladi, bu esa professional ijrochilarni tayyorlaydi va milliy cholg'u madaniyatini saqlaydi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

- **Milliy qadriyatlarni saqlash:** Dutor O‘zbek xonadonlarida azaldan bo‘lgan cholg‘u bo‘lib, uning yangrashi oilaviy an‘analarni davom ettiradi va milliy o‘zlikni anglashga yordam beradi.
- **Madaniyatning targ‘iboti:** Konsertlarda, festival va tadbirlarda dutor ijrosi O‘zbekistonning boy musiqiy merosini namoyish etmoqda.
- **Musiqiy rivojlanish:** Dutor ijrochiligi turli xil zarblar (masalan, tanovar zarbi) va ritmlarni o‘z ichiga oladi, bu esa ijrochining musiqa savodxonligini oshiradi.

Xulosa

XX asr va mustaqillik yillarida dutor ijrochiligi yangi bosqichga chiqib, ta‘lim tizimiga keng joriy etildi, konservatoriya va san‘at maktablarida maxsus yo‘nalish sifatida o‘qitila boshlandi. Texnik imkoniyatlarning kengayishi, sahna madaniyatining rivojlanishi hamda xalqaro festivallarda milliy cholg‘ularimizning namoyish etilishi dutorning nufuzi va ijrochilik maktabining yanada takomillashuviga xizmat qildi. Dutor qadimiy cholg‘udan zamonaviy orkestr cholg‘usiga aylandi va o‘zining an‘anaviy va professional ijrochilik san‘atini saqlab qolgan holda rivojlanishda davom etmoqda. Ayniqsa, maqom san‘ati, xalq kuy-qo‘shiqlari hamda bastakorlik ijodida dutorning o‘rni beqiyos bo‘lib, u milliy ruh va badiiy ifodaning muhim vositasiga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Amaliyotda esa dutor ijrochiligi yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, musiqiy didini shakllantirish va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda dutor nafaqat an‘anaviy, balki zamonaviy musiqiy yo‘nalishlarda ham muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Xulosa qilib aytganda, dutor ijrochiligi tarixiy taraqqiyot jarayonida boy tajriba to‘plagan, milliy o‘zlikni ifodalovchi muhim san‘at turi sifatida bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda va kelajak avlodlar tomonidan yanada rivojlantirilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fitrat A. «O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi», M. 1926-yil.
2. So‘g‘diyona Davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri. 2007-yil.
3. M.Safarova. “Dutor mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv qo‘llanma”.
4. Tashmatova A. “Ijrochilik san‘ati tarixi”. “Musiqqa” nashriyoti. Toshkent. 2018.